



QO‘QON XONLIGIDA ALIQULI AMIRLASHKARNING HARBIY FAOLIYATI

Juliboyev Alimardon Abdulmajid o‘g‘li

QDPI Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurash olib borgan Aliquli Amirlashkar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, qo‘qonlik sarkarda va askarlarning jasorati, chor qo‘shinlari ustidan qozonilgan g‘alabalar, shaharlarni himoya qilish, bosib olish jarayoni tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, Turkiston, tashqi siyosat, taraqqiyot, jabr-zulm, Amirlashkar, xalq harakatlari.

O‘zbek davlatchiligi tarixi o‘zining uzoq davom etgan ko‘p asrlik taraqqiyoti davomida turli tarixiy jarayonlarni boshidan kechirdi. Bu jarayonda Turkiston xalqlari o‘zligini, o‘z madaniyati va qadr-qimmatini mardonavor himoya qildi, uning yo‘q bo‘lib ketishiga yo‘l qo‘ymadi va kelajak avlodlarga yetkazib berishga erishdi[1]. Bunda o‘zbek xalqining jahonga mashhur Imom al-Buxoriy va Beruniy kabi olimlari, Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi kabi sarkardalari bilan bir qatorda o‘z vaqtida xalq tomonidan katta hurmatga sazovor bo‘lgan farzandlari ham katta jonbozlik ko‘rsatgan edilar. Turkistonning shunday shijoatli va vatanparvar farzandlaridan, XIX asrning 50-60-yillarida Qo‘qon xonligining ichki va tashqi siyosiy hayotida, ayni vaqtda Rossiya imperiyasining bosqinchilik yurishlariga qarshi kurashlarida sezilarli iz qoldirgan shaxslardan biri Mullo Aliquli Amirlashkar Hasanbiy o‘g‘li hisoblanadi(1831–1865, 9-may)[2].

XIX asr o‘rtalariga kelib, xonlikning ichki hayotida ro‘y bergan iqtisodiy va siyosiy keskinliklar tashqi siyosatga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bir tomondan xonlikning ichki nizolar oqibatida siyosiy inqirozga yuz tutishi, ikkinchi tomondan, Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo hududlariga harbiy bosqinchilik yurishlarining kuchaytirilishi ahvolning



yanada murakkablashuviga olib keldi. Mullo Aliquli Amirlashkar xonlik uchun ana shunday tahlikali bir vaziyatda siyosat maydoniga chiqdi. Aliquli Amirlashkar nafaqat xonlik ichki siyosiy hayotini barqarorlashtirishda, balki Rossiya imperiyasi tajovuziga qarshi kurashlarda ham muhim o‘rin egalladi. U o‘ziga xos sarkardalik mahorati va yo‘lboshchilik qobiliyatidan ham rus bosqinlariga qarshi kurashda unumli foydalangan. Hayoti davomida turli keskin va ziddiyatli vaziyatlarga duch kelgan bu shaxsning faoliyati juda murakkab kechdi.

XIX asrning 50–yillarida Qo‘qon xonligidagi siyosiy vaziyatning keskinlashuviga asosiy sababchilardan biri bo‘lgan Musulmonqul mingboshi qipchoq-qirg‘iz zodagonlari ko‘magida o‘zining saroydagi avvalgi mavqeini tiklash uchun qattiq kurash olib boradi. Bu kurashga har ikki tomondan eng kuchli mavqega ega harbiylar va amaldorlar qatnashadi. Bunda ayniqsa Musulmonqulga qarshi Farg‘ona va Toshkent zodagonlarining ittifoqi faol ishtirok etadi. 1852 yil Musulmonqulning Toshkentga qilgan harbiy yurishi mag‘lubiyat bilan nihoyalandi va u qolgan-qutgan askarlari bilan Chotqol tog‘lariga chekinadi[3]. Qo‘zg‘olonchilar bilan bo‘lib o‘tgan qattiq janglardan so‘ng Xudoyorxon ularni mag‘lubiyatga uchratadi va Musulmonqulni hamda qo‘zg‘olonda ishtirok etgan ko‘plab kishilarni qatl qildiradi. Bu voqealar tafsiloti haqida manbalarda quyidagi ma‘lumotlarni o‘qish mumkin: “Musulmonqul Andijon yaqinidagi Bilqillama mavzesida qo‘lga tushirilgach, Qo‘qonda dorga osildi. Uning murdasi xuddi o‘g‘rilarning murdasi kabi uch kun dorda osilib turdi. Keyin esa shaharlarda va boshqa joylarda qipchoqlarni ommaviy qirg‘in qilish boshlandi, hatto xomilador ayollarni ham o‘ldirdilar”[4].

Xudoyorxonning hokimiyatiga qarshi bo‘lgan kuchlar harakatga kelayotgan bir vaqtda, Andijonda Mallabek boshchiligidagi guruh Xudoyorxonni taxtdan ag‘darib, taxtni egallash rejasini amalga oshirishga kirishadi. Bu yerdan Mallabek o‘zining eng ishonchli kishilaridan biriga aylangan Mullo Aliqulining maslahati bilan O‘shga keladi. U O‘shda Olimbek dodxoh, Sayidbek dodxoh va boshqa nufuzli kishilar bilan ittifoq tuzib, hokimiyatni o‘z qo‘liga olish va mamlakatda tartib o‘rnatish fikrida ekanligini aytadi. Bu



yerda bir qancha maslakdoshlar orttirib, harbiy kuchga ega bo'lgan Mallabek yana qaytib Andijonga, Toshloq mavzesiga keladi va bu yerda Aliqulining hovlisida xonlik rutbasiga ko'tariladi. Ular shu yerda turib hokimiyatni egallash uchun tayyorgarlik ko'ra boshlaydilar.

Mallaxonning bu harakatini davlatga qarshi siyosiy jinoyat yoki siyosiy fitna sifatida, islom diniga va qonunlariga mos kelmaydigan hamda shariat yo'l qo'ymaydigan bir harakat deb ham baholash mumkin, biroq, yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, Mallaxon yurtida tartib o'rnatish, saroydagi boshboshdoqliklarni tugatish, o'zaro fitnalarga barham berib, kuchayib borayotgan Rossiya imperiyasining bosqinchilik tajovuzini oldini olish maqsadida hokimiyat uchun kurash olib borgan. Uning bu maqsadini ko'pgina amaldorlar va davlat arboblari, din peshvolari ham qo'llab quvvatlagan edilar.

Aliquli atrof viloyatlardan kelgan yurt ulug'lari bilan birgalikda maslahatlashib, Mallaxonning o'g'li Sulton Sayyidxonni Namangandan olib keltirib, xonlik taxtiga o'tqazadi. Bu voqea 1863 yil 9 iyulda sodir bo'lgan edi. Sulton Sayyidxon o'z navbatida Aliqulini davlat oldidagi xizmatlarini taqdirlab, unga "Amirlashkar" unvonini beradi. Bu bilan hayoti va faoliyati juda murakkab kechgan Aliquli Amirlashkarning Qo'qon xonligidagi hukmdorlik faoliyati boshlanadi. Xonlikdagi siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib turgan podsho armiyasi zobitlari Aliqulining hokimiyat tepasiga kelishiga alohida e'tibor bergan edilar. Bu bilan ular xonlikda hokimiyatdagi o'zgarishlar va bunga siyosiy kuchlarning munosabatini ko'rsatishga harakat qiladilar. Ayni vaqtda esa xonlik ichki siyosatidagi kurashlarning avj olishi imperiya manfaatlari uchun ayni muddao hisoblanardi. 1863 yilda O'rta Osiyo xonliklaridagi siyosiy vaziyat haqidagi qisqacha sharhining Qo'qon xonligiga tegishli qismida polkovnik Verevkin shunday so'zlarni qayd etadi: - "Yangi xon taxtga kelishi bilan hokimiyatga qipchoqlar guruhi chiqdi. Ularning orasida layoqatli va kuchli shaxslar ko'pchilikni tashkil etadi. Yosh xonning, ya'ni Sulton Sayyidxonning homiysi etib va otaliq mansabiga Mulla Ali(m)quli tayinlandi. U yosh bo'lishi bilan birga boshqalardan aqlliligi va kuchli xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Ali(m)qulining maslahatchilari Mingboy dodhoh, Bekmuhammad udaychi kabilar bo'lib, katta ta'sir va



mavqega ega kishilar hisoblanadi”. Demak, xonliklardagi siyosiy vaziyatni diqqat bilan kuzatgan chor harbiylari ham o‘z ayg‘oqchilaridan olgan xabarlarni tahlil qilib, unga munosabat bildirganlar. Mahalliy tarixchilar asarlaridagi ma’lumotlar va rus harbiylarining maxfiy ma’lumotlaridagi o‘xshashlik bizning ham fikrimizni tasdiqlaydi, ya’ni, Aliquli Amirlashkar biror-bir siyosiy kuch orqasida hokimiyat tepasiga kelmagan, balki, ichki siyosiy jarayonlar natijasida hokimiyatga keldi va o‘ziga xos tarzda siyosiy kuchlarni birlashtirishga harakat qildi. Bunda Aliquli atrofiga o‘ziga sodiq bo‘lgan qipchoq zodagonlarini yig‘ganda balki katta xatolikka yo‘l qo‘ygandir, biroq sharoit va zaruriyat eng sodiq va eng ishonchli kishilarni boshqaruv ishlariga qo‘yishni taqozo qilardi. Bu esa tabiiyki, boshqalarga xush yoqmasdi va siyosiy ziddiyatlarni yanada kuchaytirar edi. Biroq, bunda Aliquli faqatgina qipchoqlar manfaatini ko‘zlagan edi deyilsa, kata xatoga yo‘l qo‘yiladi. Bu fikrning isboti tariqasida, Toshkent himoyasida qipchoq lashkarlarining Aliquliga xiyonat qilib, uning halokatiga yo‘l qo‘yganliklarini keltirish mumkin. Shu kabi sabablarga ko‘ra xonlikda o‘ta murakkab siyosiy vaziyat yuzaga kelgan edi. Ana shunday sharoitda hokimiyat jilovini qo‘lga olgan Aliquliga xon “amirlashkar” unvonini beradi va bu Aliqulining vakolatlarini yanada kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy. - T.: Ma’naviyat, 1999. -B.16-17
2. Muhammad Yunus Toib. Tarixi Alimquli Amirlashkar. -T.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi “O‘zbekistonning yangi tarixi” markazi. 1997. -B. 67.
3. Ziyayev H.Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. -T.: Sharq, 1998. -B.13-14
4. Ilhomov Z.A.Amirlashkar tarixi. -T.:Sharq, 2014.-B.33-34